

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

- 1.Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб.- Т.: Ўзбекистон, 1997.
- 2.Усманов М.А. Распространение ислама и его роль в истории Средней Азии Из истории общественно-философской мысли и вольнодумия в Средней Азии.- Т.: Фан, 1991.- 24-бет.
- 3.Зиёдов Ш.Ю. Абу Мансур ал-Мотуридий калом таълимотининг шарқ фалсафаси ривожига қўшган ҳиссаси // Ўзбекистоннинг ислом цивилизацияси ривожига қўшган ҳиссаси.- Тошкент-Самарқанд, 2007.

<https://doi.org/10.34920/uzxdmk/2022/040>

ISLOM DINI AXLOQ – ODOB QOIDALARI VA GENDER TENGLIK TAMOYILI UYG‘UNLIGI

Axmedov Shaxrux Akbar o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafa yo‘nalishi II bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: falsafa doktori (PhD) Xidirov Mustafo Toyirqulovich

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ilm olish, turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirish va olingan bilimlarni hayotga joriy etishga bo‘lgan e’tibor yanada ortdi. Buyuk ajdodlarimizdan biri, odil podshoh, astronom Mirzo Ulug‘bek Buxorodagi madrasa peshtoqiga “Ilm olish har bir mo‘min va muslima uchun farzdir”

deyilgan hadisni bejiz qayd etmaganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, Islom dini hukm surgan davlatlarda nafaqat o‘g‘il bolalarning ilm olishiga, balki qizlarning ta’lim – tarbiyasiga ham alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda ham davlatimiz tomonidan gender tenglik prinsipini hayotda qo‘llash, amalga oshirish uchun yetarli shart – sharoitlar yaratilgan, qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilinmoqda, islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin, afsuski, xalqimiz ulardan keng foydalanmayapti yoki yaqinlari tomonidan yo‘l qo‘yilmayapti. Huquqiy ongimiz, ma’navyatimizdagi bo‘shliqlar gender tenglik muammosida yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Gender tenglik milliy va diniy qadriyatlarimizga qarama – qarshi tushuncha sifatida qo‘yilmoqda. Lekin aslida Islom gender tenglikka qarshimi yoki uni qo‘llab – quvvatlaydimi?

***Kalit so‘zlar:** Islom, gender tenglik, gender yondashuv, feminizm, jamiyat, oila mustahkamligi, ta’lim, tarbiya, ayollar huquqlari, erkinlik.*

***Ключевые слова:** Ислам, гендерное равенство, гендерный подход, феминизм, общество, укрепление института семьи, образование, нравственность, права женщин, свобода.*

***Keywords:** Islam, gender equality, gender approach, feminism, society, the consolidation institute family, education, women's rights, liberty.*

Har bir jamiyatda o‘z davri talablariga xos va mos bo‘lgan komil insonni tarbiyalash eng dolzarb vazifa bo‘lgan. Bunday shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishda ayollarimiz, onalarimizning o‘rni beqiyosdir. Ayollar haqida gap ketganda ko‘z oldimizga munis, ojiza bir xilqat keladi. Lekin hayot sinovlaridan

bardosh bilan o‘tishda ulardagi ma’naviy kuch – quvvatga kuchli jins vakillari ham tan berishadi. Bugungi kunda ayollar nafaqat oila, uy – ro‘zg‘or ishlari bilan bandlar, shu bilan bir qatorda jamiyat hayotining muayyan sohasida o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar, ilmiy yangiliklar yaratib, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minalash, opa – singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin – qizlarning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rnini va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz”⁵², deb ta’kidlaganlar.

1948 yil 10 – dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi” va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Millati, dini, irqi, jinsidan qat’iy nazar har bir insonning teng huquqli”⁵³ ligi ta’kidlab o‘tilgan. Ayollarning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish va mustahkamlash borasida bugungi kunda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevral kuni “Xotin – qizlarni qo‘llab – quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagи “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-son qarori, 2019 yil 2 sentabr kuni “Xotin – qizlar

⁵² [Mirziyoev Sh.M., 2016.]

⁵³ [O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., 2017:9b.]

va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-552-sonli va O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 martdagи “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 192-son qarori⁵⁴ va boshqa bir qator qonun va qonun osti hujjatlarimizga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. 2020 – 2030 yillarda Gender tenglikka erishish strategiyasi ustida ishlanmoqda. 2020 yil iyul oyidan O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minalash masalalari bo‘yicha komissiyasi huzurida Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash o‘z ish faoliyatini boshladi. Xotin – qizlarni jamiyatda o‘z fikri va o‘rniga egaligiga ishonchini oshirish maqsadida Vazirdlar Mahkamasining 486-son qaroriga ko‘ra hududlarda “Xotin – qizlar jamoatchilik kengashlari” tashkil etildi.⁵⁵ Bu savobli ishlar jamiyatimizning har bir sohasini qamrab olayotganligi jamiyatimiz hayotida ayollarning o‘rni naqadar yuksakligini e’tirof etmoqda.

2019 yil so‘ngida Shveysariyaning Butunjahon iqtisodiy forumi nodavlat tashkiloti tomonidan tadqiqot o‘tkazildi. Tashkilot mutaxassislari 153 ta mamlakatda ta’lim, sog‘liqni saqlash, siyosat, umrning davomiyligi, iqtisodiyot va kareralarni hisobga olgan holatda jinslar o‘rtasidagi tenglikni solishtirib chiqqan. “Euronews”ning bergen ma’lumotiga ko‘ra, tadqiqotchilar gender tenglikni o‘rnatish uchun yana 100 yil kerak bo‘ladi,

⁵⁴ [Lex.uz]

⁵⁵ [Kun.uz]

degan fikrni bildirishgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha dunyo reytingining avvalida Islandiya, Norvegiya va Finlandiya egallab turishibdi. AQSh reytingda 53-o'rindan, Rossiya 81-o'rindan joy oldi. Markaziy Osiyoridan Qozog'iston 72-o'rinni, Qирғизистон 93-o'rinni, Тоҷикистон 137-o'rinni egalladi. Соңгиги уч о'рин Покистон, Ирек ва Яманга насаб qilgan. Afsuski, О'zbekiston hisobotga kiritilmagan.⁵⁶

Lekin davlatlar tomonidan gender tenglikni rivojlantirish uchun turli tadbirlar o'tkazilayotgan bir paytda xalqimiz ichida ayollarni behurmat qilish, ular ustidan turli zo'ravonlik va tazyiqlar o'tkazish, ta'lim olishiga to'sqinlik qilish, o'zini va atrofidiagilarning millat saviyasiga yarashmagan fleshmoblar o'tkazish holatlari ham uchrab turibdi. Erkaklarda "gender tenglik" yoki "feminizm" tushunchalariga nisbatan salbiy munosabatni kuzatamiz. Fikr bildirishdan oldin esa ushbu tushunchalar bilan yaqindan tanishgan ma'qul.

1955 yil amerikalik olim Djon Mani ilk bor "gender" atamasini fanda qo'lladi. 1970 yillardan boshlab bu atama keng tarqalib, asosan feminizm yo'nalishi tarafdarlari tomonidan rivojlantirildi. Bu atamadan ilmda foydalanishdan asosiy maqsad biologik jinslarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, taraqqiyoti va tafavutli tomonlarini o'rghanishdan iborat.⁵⁷ Biologik jihatdan jins erkak va ayol tushunchalarini bildirsa, gender tushunchasi jamiyatda ayol va erkakning hurmati, mavqeい, egallab turgan o'rni va ularga nisbatan munosabatni bildiradi. Gender masalalari bo'yicha mutaxassis,

⁵⁶ [Qalampir.uz]

⁵⁷ [Vikipediya.ru]

huquqshunos Malika Inakova Kun.uz saytiga bergan intervyusida gender tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Erkak va ayolning o‘z huquq va manfaatlaridan erkin foydalana bilishi – bu gender. Insonning jamiyatda egallab turgan roliga nisbatan kamsitilishga uchrashi gender huquqning buzilishi, deyiladi. Masalan, ayollarning faqat uy – ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lishi, ularni joyi oshxonada deb tushunish, erkaklarning o‘zlarini ayollarga nisbatan ustun tutishlari, ularga zug‘um o‘tkazishga harakat qilishlari gender tenglikning buzilishiga olib keladi. Har bir fuqaro ayolmi erkakmi, mansabdormi yoki ishchimi, organ xodimimi yoki jinoyatchimi davlat uchun teng. Davlat gender tenglikni siyosat darajasiga ko‘taradi va tegishli qonunlar qabul qiladi. Davlat gender tenglik orqali ayollar va erkaklarni huquqlardan teng foydalanish imkoniyatini yaratadi. Davlat o‘z siyosati va qonunchiligidagi gender yondashuv asosida ishlaydi. “Gender yondashuv” deganda, ayollarning o‘ziga xos holatlarini, erkaklarning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutib, ikkalasining huquq va manfaatlarini ko‘zlagan holda ish tutish tushuniladi. Ya’ni, masalan qonunlar ishlab chiqarish sohasida ayollarning ham bo‘lishi ayollarning erkaklar inobatga ololmaydigan, tushuna olmaydigan ba’zi holatlarini tushuntirishga, ularning manfaatlarini to‘g‘ri yetkazib berib, kerakli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Xuddi shunday, erkaklar manfaatlarini ayollarga nisbatan erkaklar yaxshiroq anglashadi.”⁵⁸ Demak, gender tenglik bu jamiyatdagi haq – huquqlardan jinsidan qat’iy nazar erkin foydalana bilish huquqi, adolatidir.

⁵⁸ [Kun.uz]

Jamiyat hayotida ayollar manfaatlarining ayollar tomonidan qo‘llab – quvvatlanishi Islom diniga ham yot tushuncha emas. Masalan, Saodat asri davrida ayollarga bog‘liq turli savollar paydo bo‘lsa, vaziyatga qarab, yo Payg‘ambarimizdan, yoxud ularning ahli ayollaridan vaziyat hukmini so‘rab bilib olishgan. Poklik, nikoh, taloq, zihor kabi ayollarga, oilaga oid masalalarga ayollarning tashabbusi bilan oydinlik kiritilgan. Demak, o‘sha davrlarda ham ayollarda bilim olishga nisbatan qiziqish kuchli bo‘lib, bu erkaklar tomonidan taqiqlanmagan. So‘zimiz isboti sifatida quyidagi hadisni keltiramiz: “Abu Dovud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Ayollaringizni masjidlardan man qilmang, zotan, xonalari ular uchun yaxshiroqdir” deganlar.”⁵⁹ Ya’ni ayollarni uyda o‘tkazib qo‘yishdan maqsad dunyodan, bilim olishdan uzish emas, balki g‘iybatchi, yovuz maqsadli insonlardan himoya qilish bo‘lmog‘i lozim. Masjidlarga borishga berilgan ruxsatda esa, nafaqat diniy toat – ibodatni amalga oshirishni, balki ilm olishga imkoniyat yaratib berishni ham tushunishimiz lozim. Ayol kishi farzand tarbiyalab voyaga yetkazar ekan, doim o‘z ustida ishlamog‘i, bilimini oshirib bormog‘i lozim.

Bir kuni Sharq mutafakkiridan bir odam “Mening ikkita farzandim, qizim va o‘g‘lim bor. Ulardan qay birini ta’lim olishga berganim ma’qul?” deb so‘rabdi. Olim: “Qizingni, - debdi. – Zero, o‘g‘ling bilim olsa o‘ziga naf, qizing ilm o‘rgansa butun jamiyatga foyda”.⁶⁰ Olingan bilim nafaqat bir inson foydasiga, balki jamiyat manfaatiga xizmat qilmog‘i lozim.

⁵⁹ [“Oltin silsila: 6-juz: Sahihul Buxoriy”, 2018:662b.]

⁶⁰ [Mehrob.uz]

“Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi”ning 26 – moddasi 2-bandida “Ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlar hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog‘i lozim. Ta’lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o‘rtasida bir – birini tushunish, xayrixohlik va do‘slikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak”,⁶¹ deb belgilangan. Tarixdan oila va ilmni birga olib borgan ayollarga Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ayollari, jumladan Oisha onamizni misol keltirishimiz, Nodirabegim, Uvaysiy va boshqa ko‘plab alloma, shoira ayollarimiz, butun dunyoga dong‘i kelgan allomalarimiz, olimlarimizning soliha, ilmga chanqoq onalari, yaqin kunlardan esa ilmda yuqori cho‘qqilarga erishayotgan hamyurtlarimiz Aziza Shonazarova, Nigora Hakimovalarnigina ta’kidlab o‘tishimizni o‘zi ilm olish va oila mustahkamligi Sharq ayollari uchun o‘zaro bog‘liq, mushtarak maqsadlar ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Buyuk ajdodlarimizdan biri, odil podshoh, astronom Mirzo Ulug‘bek Buxorodagi madrasa peshtoqiga “Ilm olish har bir mo‘min va muslima uchun farzdir” deyilgan hadisni bejiz qayd etmaganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, Islom dini hukm surgan davlatlarda nafaqat o‘g‘il bolalarning ilm olishiga, balki qizlarning ta’lim – tarbiyasiga ham alohida e’tibor berilgan.

Ayol va qizlarning ilm olishi masalasiga ma’rifatparvar jadidchilar ham katta e’tibor qaratishgan. Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida ilm olgan va ilmdan uzoq ayollarni qiyosiy

⁶¹ [“O‘zbekistonda inson huquqlari”. 2008:160.]

tahlil qilgan. Bilimli ayolda fahmu – farosat bo‘lib, uy – ro‘zg‘or ishlarini ko‘ngildagidek bajarish bilan birga, oila a’zolari bilan murosa-yu madora qilish yo‘llarini biladi, farzandlarini chiroyli, mard qilib tarbiya qiladi, deb ta’kidlagan. Bilimli, g‘ayratli, jasur farzandlarni tarbiyalash ayollar zimmasidagi mas’uliyatdir. Shu sabab, asarda “millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”⁶², deyilgan.

“Feminizm” tushunchasi esa ilk bor G‘arbda paydo bo‘lgan. Ma’lumki, XX asrning boshlarida G‘arb ayoli deganda asosan uy – ro‘zg‘or yumushlari bilan band bo‘lgan ayollar tushunilgan. Bu ayollar jamiyatning tor dunyoqarashi tufayli biror ilm sohasida o‘zini ko‘rsatish yoki muayyan mutaxassislikka erishish kabi imkoniyatlardan mahrum bo‘lgan. Asosan kam ta’minlangan yoki qullikda bo‘lgan ayollar jamiyatning eng past darajasidagi ishlar bilan shug‘ullanishgan. Shu sababdan ham feminism oqimi vujudga kelib, ayollarning bilim olish va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun kurashdi. Bugungi kunda G‘arb mamlakatlarida xotin-qizlar yuridik huquq va erkinliklarga, tug‘ishni nazorat qilish huquqiga erishdilar, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olib, jamiyat hayotida o‘z o‘rinlariga erishib kelishmoqda. Lekin ming afsuski, mustahkam oila masalasi G‘arb davlatlarida oqsamoqda. G‘arb ayollarining bugungi ko‘rinishini asosan ilmda yutiqqa erishgan, jamiyatda o‘z o‘rniga ega, ammo yolg‘iz ayollar, onalar tashkil etmoqda.⁶³ Bu esa demografik inqirozga olib keladi. Ko‘ngil xotirjamligi, yarim baxt orqali erishilgan erkinlik hech kimga ta’timaydi.

⁶² [A.Fitrat., 2016:147b.]

⁶³ [“Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi”, 2003:345b.]

Demak, ikki tushuncha ikki xil ma’noni anglatishini, feminism Sharq ayoli, ayniqsa o‘zbek ayollarining mentaliteti, milliy va diniy qadriyatlariga umuman to‘g‘ri kelmasligi, va hatto undan foydalanmasligini tushunishimiz qiyin bo‘lmasa kerak. Lekin gender tenglik har bir jamiyat rivoji uchun muhim va bu Islom dini hukm surgan davlatlar uchun begona emas. Gender tenglikni talab qilish Islom axloq – odob qoidalariga ham zid kelmaydi.

Islom dini kelishidan avval johiliyat davrida qiz farzand ko‘rish or hisoblanar, qizlarning qadri past, ularni mol – mulkka qo‘shib meros qilib olish odatiy hol edi. Ularning ta’limiga umuman e’tibor berilmagan. Eng achinarlisi, johiliyat davrida odamlar vaxshiylashib, xatto qizlarini tiriklayin ko‘mish kabi qabihlikkacha borishgan. Ularning fikricha, qizlar urushda qatnasha olmaydilar, qatnashsalar ham asir tushib bizni sharmanda qiladilar, deb bilishgan. Ularning johil ishlari haqida Qur’oni Karimning Nahl surasi 59 – oyatida: “Va u (qizni) xo‘rlagan holida olib qolish yoki (tiriklay) tuproqqa qorish (to‘g‘risida o‘y surib), o‘ziga xushxabar berilgan narsaning (ya’ni, qiz ko‘rishning) “yomon”ligidan (nomus qilib) odamlardan yashirinib olur. Ogoh bo‘lingizkim, ular (bu qilmishlari bilan) eng yomon (ya’ni, nohaq) hukm chiqarurlar”.⁶⁴

Payg‘ambarimiz Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ayollari Xadicha onamiz johiliyat davrida tavallud topganlar. Xadicha binti Xuvaylid roziyallohu anho o‘z davrining zodagon, tadbirkor ayollaridan bo‘lib, bolaliklaridan o‘zlarining zukkoliklari, mehnatsevarliklari, barchaga mehr – oqibatliliklari bilan yaxshi nom qozonganlar. Otalari Xuvaylid qizining aql

⁶⁴ [Shayx A. Mansur., 1992:236b.]

– farosatidan, mehribonligidan quvonib, Allohga hamdlar aytar, johiliyat davrida qizlaridan jirkanadigan, berahmlarcha muomala qiladigan, tiriklayin ko‘mib yuboradigan qavmining bunday johilliklaridan nafratlanardi. Zero, o‘sha ma’sum holda o‘lib ketgan qizlar ichidan qanchadan – qancha Xadicha onamiz kabi aqli, tarbiyali, mehribon qizlar yetishib chiqishi mumkin edi. Islom dini voqe bo‘lgach, ayollar va qizlarning jamiyatdagi o‘rni yuksak ekanligi belgilandi, ularning qadr – qimmati ko‘tarilib, ta’lim – tarbiya olishi farz amallardan etib belgilandi. Hadicha onamiz oila farovonligini ta’minlovchi mehribon umr yo‘ldosh, maslahatgo‘y ona, shu bilan bir qatorda kuchli zehnli tadbirkor ayol bo‘lganlar.

Ayol kishi erining qo‘lida bir niholdir. Uni qanday parvarish qilish, dag‘allashtirish yoki nazokatini saqlab qolish shu erkakka bog‘liq bo‘ladi. Bugungi jamiyatimizda o‘z burch va majburiyatlarini to‘liq anglab yetmagan, amal qilmaydigan, o‘zi bajarmaganiga yarasha ayolidan itoatni, burchlariga amal qilishni talab etayotgan, ishlayotgan, o‘qiyotgan ayol – qizlarimizga bo‘xton toshlari otayotgan, milliy va diniy qadriyatlarimizga bepisand bo‘lgan erkaklar ham mavjud. Ayrim hollarda ro‘zg‘orini tebratish uchun halol mehnat qilayotgan ayollarga bepisand munosabatni, axloqqa zid ishlarni bog‘lab tuxmat qilish eng achinarli holat. Qur’oni Karimning Nur surasida pokiza ayollarga tuhmat qilgan odamlarga darra urilishi, ularning guvohligi qabul qilinmasligi, chunki ular fosiq – itoatsiz ekanliklari aytib o‘tilgan.⁶⁵ Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda esa: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday deganlarini eshitganman:

⁶⁵ [Shayx A. Mansur., 1992:315b.]

“Banda bir gapni aniqlamay gapirib qo‘yadi-da, shu sababli do‘zaxning mashriq (va mag‘rib) oralig‘idan ham uzoqroq joyiga toyilib, qulaydi”⁶⁶, deyilgan.

Biror voqeaga holis baho berish uchun unga yuzaka qarashimiz noto‘g‘ri. Vaziyatga har tomonlama e’tibor berib, o‘rganish lozim bo‘ladi. Balki ishlayotgan ayolning boshqa boquvchisi yo‘qdir, yoki boquvchisi turli kasalliklar bilan og‘riyotgan yoxud nogiron insondir. Yoki bu ayolning qobiliyati, zakovati, tirishqoqligi ham oilani, ham kasbini bir maromda olib borishga yetar. Nima uchun qobiliyatini “kim nima derkin?” degan ahamiyatsiz gap – so‘zlarni deb yo‘q qilib yuborishi, Alloh bergen ilmdan o‘rinli foydalanib, xalqiga, jamiyatiga foyda keltirmasligi lozim?

Qur’oni Karimning Niso surasi 29 – oyatida “Ey mo‘minlar, mollaringizni o‘rtalariningizda nohaq yo‘llar bilan yemangiz! Balki o‘zaro rizolik bilan bo‘lgan savdo – sotiq orqali mol – dunyo kasb qilingiz” deyigan.⁶⁷ “Ayollar” ma’nosini anglatuvchi ushbu surada oyat qaratilgan kishilar erkak yoki ayolga bo‘linmagan. Umumiyluk orqali halol mehnat qilish lozimligi uqtirilgan. Hattoki, Payg‘ambarimizning ayollaridan biri bo‘lmish Zaynab binti Jahsh onamizning kasb – hunar qilib, undan yaxshilik yo‘lida foydalanganlari tarixdan ma’lum. “Qo‘li mohirlik, teri oshlash, tikuvchilik qilib, mablag‘ topib uni sadaqa qilish Zaynab binti Jahsh onamizning katta fazllari edi.”⁶⁸

⁶⁶ [“Oltin silsila: 8-juz: Sahihul Buxoriy”, 2018:8b.]

⁶⁷ [Shayx A. Mansur., 1992:72b.]

⁶⁸ [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf., 2019:258.]

Oisha onamiz roziyallohu anho ayol kishining ishsiz qolishiga qarshi edilar. U kishi ayollarni doimo foydali mehnatga chorlardilar va: “Ayol kishining qo‘lidagi urchuq Allohning yo‘lidagi jihod qiluvchi mujohidning qo‘lidagi nayzadan yaxshidir”, der edilar. U kishi bir kuni bir ayolning qo‘lida urchuqning izini ko‘rib qolib: “Senga Alloh tayyorlab qo‘ygan narsalarning bashoratini beraman. Ey ayollar jamoasi! Alloh sizlar uchun tayyorlab qo‘ygan narsalarning ba’zisini ko‘rganingizda, ertayu kech tinim bilmas edingiz. Qay bir ayol o‘zi, eri va bolalari uchun urchuq yigirsa, albatta, Alloh azza va jalla unga jannatdan mag‘rib va mashriqdan kengroq uy beradi. Har bir to‘qigan kiyimi uchun unga bir yuz yigirma ming shahar beriladi. Ey ayollar jamoasi! Erlaringizga itoat qilganingiz, bolalariningizga xizmat qilganingiz uchun sizlarga Alloh taoloning huzuridagi narsalarning bashoratini qabul qiling! Sizlar bu dunyoda miskin bo‘lsangiz ham, u dunyoda anbiyolarning xotinlari bilan birga jannatga birinchi borganlardan bo‘lasiz. Alloh taolo sizlarning kabiradan boshqa gunohlaringizni mag‘firat qiladi”, dedilar.⁶⁹ Oddiygina uy – ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lgan ayolning hurmati shu darajada bo‘lsa, bunga qo‘shimcha sifatida ham ishni, ham ilmni eplayotgan, ham oilasi mustahkamligi uchun kurashayotgan ayollarning darajasi qanday ekan?!

Albatta, hayotda har xil vaziyatlar yuz beradi. Oilaviy munosabatlarda ba’zida tushunmovchiliklar kelib chiqishi, xafagarchilik holatlari ro‘y berishi mumkin. Albatta, bu vaqtinchalik tushunmovchilik bo‘lib, er – xotin bir – biriga nisbatan kechirimli bo‘lishi, ko‘ngliga ozor yetkazadigan,

⁶⁹ [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf., 2019:258.]

keyinchalik bir – birini oldidagi hurmat va andishani yo‘qotadigan so‘zlar ishlatmasligi, yarashilganidan so‘ng xafagarchiliklarni eslab, bir – birini dilini og‘ritmasligi lozim. Shunday vaziyatlarni inobatga olgan holda Olamlarning Buyuk tarbiyachisi bo‘lmish Alloh taolo Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimning Niso surasi 19 – oyati “Ular bilan tinch – totuv yashanglar. Agar ularni yomon ko‘rsangizlar ham (sabr qilib inoq holda yashayveringlar). Zero sizlar yomon ko‘rgan narsada Alloh ko‘p yaxshiliklarni qilib qo‘ygan bo‘lishi mumkin”⁷⁰ ni nozil qildi.

Jannatning gul-u rayhonlari bo‘lmish farzandlarimizni tarbiyalab, voyaga yetkazuvchi ayollarga nisbatan erlari tomonidan zo‘ravonlik, kuch ishlatish kabi holatlarning ro‘y berayotgani juda ayanchli holat. Teleekranlarda, internet sahifalarda ko‘rishning o‘zida insonda nafrat qo‘zg‘atuvchi, odamlarning ko‘plab e’tirozlariga sabab bo‘layotgan holatlar kun sayin ko‘paymoqda. Bu biz eshitgan yoxud xabar topgan holatlar xalos. Oilasini saqlash, farzandlarini tirik yetim nomidan asrab qolish maqsadida bunday tazyiqqa uchrayotgan ayollar qancha. Milliy va diniy qadriyatlarimizda erkakni hurmat qilish, hurmat jihatidan o‘zidan bir pag‘ona yuqori ko‘rish kabi hislatlar ayollarda bolaligidan shakllantiriladi. Lekin qaysi millat yoki din erkakka ayolini shunchalik xo‘rlash, jirkanch ishlarni qilishga majbur etishga ruxsat beradi? Bu eng avvalo insoniylikka, axloq – odobga to‘g‘ri kelmaydigan harakatdir. Hozirgi kunda dunyo miqyosida har uch ayoldan biri jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda. Sahih hadislarga ko‘ra, Abdulloh ibn Zam’a roziyallohu

⁷⁰ [Shayx A. Mansur., 1992:70b.]

anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Birortangiz o‘z ayolini qulni kaltaklagandek kaltaklamasin» dedilar.[Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf., 2018:242b.] Bu bilan Islom dinida ayol kishining qadr – qimmati yuqoriligi yana bir bor ta’kidlangan.

Ma’lumki, 2020 yil 4 yanvardan boshlab tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin – qizlarga nisbatan himoya orderi joriy etildi. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi xabariga ko‘ra, 7 oy ichida 3592 nafar xotin – qizlarga himoya orderi berilgan. Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra, himoya orderlari berilgan hududlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Buxoro viloyatlari soni boshqalarga nisbatan ko‘p. Joriy yil 20 aprel holatiga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 14 nafar ayol farzandlari bilan Andijon, Buxoro, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlaridagi Reabilitatsiya va moslashtirish markazlariga joylashtirildi. Ularga kerakli huquqiy, psixologik, tibbiy yordam ko‘rsatib kelinmoqda. Bu statistik ma’lumotlar inson o‘z ustida ishlab, g‘azabini jilovlashni o‘rganmagunigacha shayton vasvasasidan holi bo‘la olmaydi. O‘zini, atrofidagilarini, jamiyatini uyatli holatga solib qo‘yaverishini ko‘rsatmoqda. Zero, baxtli bo‘lish, farovon hayot kechirish har birimizning qo‘limizda.

Har bir illat bekorchlik, o‘zidan boshqani dardini his qilmaslik, loqaydlikdan kelib chiqadi. Makhul roziyallohu anhu Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: “G‘iybatchi, maddoh, ta’na qiluvchi va o‘likka o‘xshab yuruvchi kishilar bo‘lishdan saqlaninglar”, degan hadislaridagi “o‘likka o‘xshab yuruvchilar”ni kasb bilan shug‘ullanmaydigan kishilar, deb

izohlaganlar”.⁷¹ Bu illatlar nafaqat bir inson, balki jamiyat kelajagiga salbiy ta’sir qilishidan ogoh bo‘laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” nashriyotmatbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017-yil.
2. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2016 yil, 15 dekabr.
3. “O‘zbekistonda inson huquqlari”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi. Toshkent - 2008-yil.
4. Qur’oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Shayx Alouddin Mansur. “Cho‘lpon” nashriyoti, Toshkent - 1992-yil.
5. “Oltin silsila: 6-juz: Sahihul Buxoriy”. “HILOL-NASHR” nashriyoti. Toshkent - 2018-yil.
6. “Oltin silsila: 8-juz: Sahihul Buxoriy”. “HILOL-NASHR” nashriyoti. Toshkent - 2018-yil.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hadis va hayot. 25-juz. “Nubuvvat xonadoni xonimlari”. “HILOL-NASHR” nashriyoti. Toshkent - 2019-yil.

⁷¹ [Al-Faqiq Abu Lays As-Samarqandiy., 2003:25b]

8. “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam». Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “HIOL-NASHR” nashriyoti. Toshkent - 2018-yil.

9. Al-Faqix Abu Lays As-Samarqandiy “Tanbehul – g‘ofiliyn” (“G‘aflatdan uyg‘onish”) 3-kitob. “Movarounnahr” nashriyoti. Toshkent - 2003-yil.

10. A.Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. “Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent – 2016-yil.

11. “Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi”. O‘zbekcha nashri: “Ochiq jamiyat” instituti Ko‘mak jamg‘armasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2003-yil.

12. Lex.uz internet sayti.

13. Kun.uz internet sayti.

14. Qalampir.uz internet sayti.

15. Vikipediya.ru internet sayti.

16. Mehrob.uz internet sayti.